



UCHINCHI RENESSANS – YOSHLAR IMKONIDA

Samadova Nigora Ubaydullo qizi*Mexanika asoslari kafedrası o'qituvchi stajyori**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti***Umurov Muzaffar Uyg'un o'g'li***512 – 23 QMB guruh talabasi, Buxoro**muhandislik-texnologiyasi instituti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa yoshlarimiz tomonidan yangi uyg'onish davri Uchinchi Renesans davriga poydevor qurish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida fikr yuritilgan. Yangi O'zbekistonda bashorat qilinayotgan ushbu davr yurtimiz tarixi zarvaraqalarida yorqin sahifa bo'lishi uchun amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *e'tirof, yangi islohot renesans, yoshlar, ta'lim-tarbiya, qayta tug'ilish, madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье дается представление о проводимых в настоящее время в Узбекистане реформах, особенно о той созидательной работе, которую должна провести наша молодежь для создания фундамента третьего периода Возрождения. Этот период, который прогнозируется в новом Узбекистане, находит свое отражение в реформах, проводимых для того, чтобы стать яркой страницей в истории нашей страны.*

Ключевые слова: *конфессия, новое реформаторское возрождение, молодежь, образование, возрождение, культура*



Abstract: *This article gives an idea of the ongoing reforms in Uzbekistan, especially the creative work that our youth must do to create the Foundation for the third Renaissance period. This period, which is predicted in the new Uzbekistan, is reflected in the reforms carried out in order to become a bright page in the history of our country.*

Keywords: *confession, new reform Renaissance, youth, education, rebirth, culture*

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev jonajon diyorimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda “Yangi O'zbekiston” iborasi tilga olinayotgani, bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi ekanini alohida ta'kidlab, «Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», - degan fikrlarni ilgari surdi.

"Yangi O'zbekiston" iborasi bu taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz ya'ni “Uchinchi renessans” davrining boshlanganini bildiradi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, barchamiz chuqur anglab olmog'imiz kerak. Renessans nima? Nega Uchinchi Renessans deyilmoqda?

“Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez



rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”, deydi Prezident.

Tarixga nazar solsak, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi IX –XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans davri boshlandi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholar Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o'nlab buyuk allomalarni yetishtirib berdi.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani biz uchun g'urur va iftixordir.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan



yillarimizning ilk davrida biz o'zimizning milliy o'zligimizni anglash, boy tarixiy-ma'naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag'zini chaqish va uni ro'yobga chiqarishga intilgan bo'lsak, endilikda xalqimiz jipslanib «milliy tiklanishdan – milliy yuksalish» g'oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendentsiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi e'tirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining o'zan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora o'sishi bois, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda mas'uliyati o'zgardi. Ayniqsa, yosh-avlodga e'tibor, yoshlarga shart-sharoitlar yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayon. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi – yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost. Maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Yoshlar borasidagi siyosat ta'limning uzluksizligigagina emas, balki uzluksiz tarbiyaga ham yo'naltirilganligi e'tiborlidir.

Birgina misol sifatida Prezident maktablarining, atoqli adiblar nomi bilan bog'langan ijod maktablarining ochilishini keltirish mumkin. Bundan tashqari jajji bolajonlar uchun Yevropa hamda milliy uslubda ta'mirlangan, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil etilayotganligi uchinchi renessansning kurtak yoyayotganligidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoev “Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz. 2020-yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi” deganida qat'iy ishonch va aniq rejalar borligini nazarda tutayotgani sir yemas. Aniq maqsadlar sari intilganda, shunga mos bo'lgan intellektual, salohiyatli yoshlar va barkamol avlod zarur.



Ayniqsa, yoshlarni sportga, san'atga, ta'lim sohasiga yo'naltirish maqsadida hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham sport to'garaklari, badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va «Yoshlar klublari» faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etildi. Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etilishi, ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatib borilishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bularning barchasi yosh avlodga bo'lgan e'tibordan darak.

O'zbekistonda ilmiy, yuqori salohiyatli oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada oliy ta'lim tizimini takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Chet elning qator nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda O'zbekistonda ularning filiallarining tashkil etilishi, zamonaviy keng qamrovli oliy ta'lim muassasalarining qurilishi, ayniqsa, yoshlarning dunyoning xohlagan ta'lim muassasalariga borib bilim olishlari uchun imtiyozlar, shart-sharoitlarning yaratilishi yurtimizda uchinchi renessansning boshlanganidan dalolat beradi.

Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta'lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil yetilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlaganining o'zi



O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz.
3. Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
4. Беков У. С. Квантово-химические расчёты зарядов олигоэтиленetriэтоксисилана-как основа устойчивости промежуточного и переходного состояний //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-1 (77). – С. 78-80. URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/10846>
5. Рахимов Ф. Ф., Беков У. С. Квантово-химические расчёты зарядов кремниорганических соединений-как основа устойчивости промежуточного и переходного состояний //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 5-2 (95). – С. 47-50. URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/13614>
6. Беков У. С. О внедрении безотходных технологий в кожевенно-меховой промышленности //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-3 (75). – С. 9-11.
7. Беков У., Қодиров Ж. Гидрофобные свойства пластицированного гипса полученоно с использованием органического полимера на основе фенолформальгида //Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 25. – С. 23-26. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7344600>



8. Беков У. С. Флуоресцентные реакции ниобия и тантала с органическими реагентами //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 5 (71). – С. 47-49. URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/9350>
9. Safarovich B. U. et al. Using sunlight to improve concrete quality //Science and pedagogy in the modern world: problems and solutions. – 2023. – т. 1. – №. 1.
10. Safarovich B. U., Khaidarovich K. Z. Type of creep deformations of cellular concrete obtained by a non-autoclave method at low stresses //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 81-85.
11. Беков У. С., Хайдарович Қ. Ж. Физико-механическая характеристика уплотнителей, полученных в результате переработки вторичного бетона и железобетона//Pedagogsjurnali.–2023.–Т.31.–№.2.–С.51-56.
<https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3704>
12. Беков У.С., Хайдарович Қ.Ж. Физико-механические свойства пластицированного гипса полученного на основе фенолформальгида //Principal issues of scientific research and modern education. –2022.–Т.1.–№.8.
<https://woconferences.com/index.php/pisrme/article/view/379>
13. Беков У. С. Исследование относительных деформаций неавтоклавного ячеистого бетона в условиях чистого сдвига. –2023.
<http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/1191>
14. Muhiddinovich Z. K., Safarovich B. U. Study of force dependences in diamond ironing. – 2023. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/01/article/view/1189>
15. Беков У. С. и др. Состав и свойства вяжущих ведущих марок //Journal of new century innovations .–2023.–Т.31.–№.2.–С.67-72.
<http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/7870>
- 16.** Telmanovich M. U. et al. Betonga issiqlik bilan (termo) ishlov berish uchun quyosh energiyasidan foydalanish istiqbollari //Образование наука и инновационные идеи в



17. мире.–2023.–Т.26.–№.2.–С.115-121.

<http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/8380>

18. Беков У. С., Хайдарович Қ. Ж. Пригибание плит перекрытия из неавтоклавногo ячеистого бетона при нагрузке //Образование наука и инновационные идеи в мире. –2023.–Т.26.–№.2.–С.122-128.

<http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/8381>

19. Obid o'g'li T. M. et al. Yuqori markali bog 'lovchilar asosidagi ko 'pik beton tarkibini ishlab chiqish //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 34. – №. 1. – С. 58-62. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/8376>

20. Беков У. С., Хайдарович Қ. Ж. Действие напряжения в средах на долговечность и скорость установившейся ползучести полиметилметакрилата //Research journal of trauma and disability studies. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 1-6.

<http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1195>

21. Беков У. С., Хайдарович Қ. Ж. Долговечность и скорость установившейся ползучести выдержанных в жидких средах образцов полиметилметакрилата при изгибе //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 7-11. <http://journals.academiczone.net/index.php/rjtds/article/view/1196>

Obid o'g'li T. M. et al. YUMB asosida olingan ko 'pik betonning fizikaviy-mexanikaviy xossalari //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 47-54. <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/125>